

Сўфий - табиб шайх Нурсафардий

Бир вужудда икки олам

Ҳақ йўлида – Ҳақпарвар
Халқ йўлида - халқпарвар
Ватан ишқида – жонкуяр

Вужуд надир, келажаги қабр бўлажаги тупроқдир. Ва ана шу тупроқ маҳсули тупроққа қайтгунча, дедимки, икки оламини ўз бағрига сиғдириб унинг илоҳиётга боғлиқ лаззатини борлиғида мужассам этганки, уларнинг бири тафаккур олами бўлса, бири кангул оламидир. Ва яна дедимки, бу икки олам ўз оразидан нафс пардасини кўтариб комиллик саодати бирла боқийлик жавоҳиротидан баҳраманд бўлмоқ илинжида вужуд қамоғидан озодлик истар. Ожиз вужуднинг каромати шундадирки, ул икки буюк оламини бирлаштириш ва унинг аниқ манзили, саодат сарҳадига кузатган ҳолда, қабрга хотиржам қайтмоқ қобилиятига эгадир. Икки олам, бул биринчиси фонийга боғлиқ тафаккур олами бўлса, иккинчиси боқий оламга уланувчи кангул оламидир. Икки олам агарким, орадаги нафс деворлари машаққат қуроллари билан яксон қилинмас экан, алар туташмасдир ва мурод ҳосил бўлмагай. Тафаккур фонийни кўрар, кангул бақони. Инсонлар англадимки, ақл билан чекланибдилар. Тафаккур ва кангул чегараларини нафснинг қудратли душманлари мустаҳкам қўриқламоқдаки, ожиз бандалар бундай темир истеҳкомни ўз риёзатлари билан бузиб ўтмоққа ўзларида куч тополмадилар. Тафаккур зиндонбанд, кангул фонийга асирдир.

Бу асирликдан озодлик истар тафаккур ва кангулни қутқармоқ илинжи ақл ва иймон чекига тушгай. Ақл қўшинини тафаккурга иймон лашкарларини кангулга ташламоқ лозимки, токи икки олам оразига парда тортиб турган нафс душманларини яксон қилсинлар... Иймон лашкарлари кангул эшиги олдидаги манманликни енгсалар, ақлнинг чаққон қўшинлари тафаккурнинг аср этган манқуртлик ёвларига зарба берадилар. Кангулда адолат қиличлари жаҳолат қалқонларини парчалаб ҳақиқат эшикларидан кирсинлар. Тафаккурда илм тўлқинлари илмсизлик кулбаларини ўз домига тортиб кетсин. Кангулда илоҳий маъбудалар фонийлик истаган фоний мартабаларни бекор қилсинлар...

Икки олам икки хилқат. Инсонким аввал биринчи ҳолатда тафаккур оламининг кичик онг қўрғонида одамийлигини англади. Ва бу қўрғон саройини ақл кучлари билан қайта қуриб уни тафаккур саройига айлантирганча ташқи оразини илм жавоҳирлари билан бегади. Ва тафаккур англадиким, саодат топмоқ истаги илм уммонларида жўш урмоқда ва иккинчи олам кангул оламидаги ишқ тожини бошига қўндирсагина чинакам ҳақиқатга эришар.

Бир вужуддаги икки олам... Ва лек авом ақл билан чекландилар ва бул икки олам сукут салтанатида пинҳона, нафс бўрони остида мавҳумлик салтанатига чўкиб кетмоқда. Авом халқда манқуртлик нафаси нима билан ифодаланади? Манқуртликни енгиш учун, тафаккурни уйғотиш ва кангул булоқларини очиш учун нима керак эди? Манқуртлик нимага олиб келди ва қай манзилга бошламоқда? Манқуртликнинг сабаби халқ ичидан донишмандликнинг йўқолишидир... Халқни ватанпарварлик ва ҳақпарварликка ундовчи донишмандлар қаерда қолди? Агар уларким мавжуд бўлсалар халқнинг манқуртлигига сабабчидирлар. Ёйинки, донишмандларимиз қўрқоқлик важдан таёқларини елкаларига ташлаб халқни авомлик гирдобига ташлаб ватандан чиқиб кетдиларми? Донишмандлик халқ бирла бирга бўлиб уларга маърифат улашиш билан ўлчанмасми? Донишмандлик курашларда тобланур... Халқ бирла ёнма - ён турмаган донишманд донишманд эмасдир. Агар донишмандлар халқ орасида бўлсалар уларнинг нафасидаги ҳикматни кўрмаганимиз ва эшитмаганимиз бизни манқуртлик гирдобига янаям чуқурроқ чўктирмоқда. Халқнинг тафаккур булоғига илм сувларини қуймоқ донишмандлар касби эмасми? Донишмандлар курашмасинлар сўзларини айтсинлар... Бизнинг англашимизча донишмандлар ё халқни ичига кириб халқ бўлиб кетдилар ва ёки кучли донишмандликларидан халқни назарга илмаяптилар. Уларнинг оми халққа илм беролмаганликлари халқни манқуртликка олиб келдики, бу ҳолатни уларнинг қўрқоқлик касб қилиб, ҳақиқатдан йироқ кетганликлари билан баҳолаш мумкин дир. Биз ўтмиш донишмандларимизни мақташ ва мақтанишга эътиборни кўпроқ бераяпмиз... Лекин уларнинг таълимотларини амалиётимизда қўллай олаяпмизми? Ёки кўз бўямачиликни донишмандлар касбига айлантираяпмизми? Чиройли парда деразага жуда ярашгани билан доимий ёпиқ турса хонадаги анжомлар моғор босади. Донишмандлар парда ортида қолиб кетмаслиги керак. Улар худди ҳар тонгда қуёш шарқдан ўз оразини кўрсатиб, жаҳонга нур сочгани каби халқ олдида юзларида балқиб турган донишмандлик нури, ҳикматлари сурури ва халқпарварлик ғурури билан намоён бўлсалар, кўнгилларга маърифат нури ёғилади.

Донишманд зинҳор ўзи учун яшамагай . Донишманд бу халқдир, ватандир. Илоҳ илми ва донишмандлик жавоҳири ҳар кимга ҳам берилмагай... Донишмандлик кўтарилган юртда одамлар нафсга берилгайлар. Омма орасидан меҳр - оқибат кўтарилгай. Саховат йўқолгай, сахийлик сўнгай. Адолат кетиб жаҳолат уруғи сочилгай. Донишманднинг донишмандлиги унинг таёғида эмас маёғидадир. Илм манзилларини аниқ ва тиниқ кўрсатувчи маёқ халқни

саодатга бошлаб оммани маърифатга ундасагина унинг донишмандлиги намоён бўлмай. Донишманди бўлмаган халқ авомлик гирдобададир... Тарих донишмандларининг илмий - меросий ҳикматларидан вужудан зоҳир донишмандларнинг илмий қуввати халқ онига тезроқ кириб бормай... Ва халқ билан юзма - юз бўлган ҳолда ҳикмат сўзламоқнинг маърифати ҳам кучлироқдир...

Минг афсуски, халқ орасида ҳаёт тарзи фақат иқтисод билан боғланиб донишмандликдан чекиниш рўй берди. Шу маънода англамоқ лозимки, бойлик омонатдир ва лекин донишмандликни ҳеч қандай қурол билан енгиб бўлмамай.

Икки оламни бир вужудда барпо қилиб саодат саройида ўзликни намоён қилмоқ бахти ҳар бирингизга насиб этсин.

Донишмандликни севинг ва унинг сўнмас нурлари ҳар бирингизнинг қалбингизни ёритмай, иншооллоҳ...

So'fiy - tabib shayx Nursafardiy

Bir vujudda ikki olam

Haq yo'lida - Haqparvar

Xalq yo'lida - xalqparvar

Vatan ishqida - jonkuyar

Vujud nadir, kelajagi qabr bo'lajagi tuproqdir. Va ana shu tuproq mahsuli tuproqqa qaytguncha, dedimki, ikki olamni o'z bag'riga sig'dirib uning ilohiyotga bog'liq lazzatini borlig'ida mujassam etganki, ularning biri tafakkur olami bo'lsa, biri kangul olamidir. Va yana dedimki, bu ikki olam o'z orazidan nafs pardasini ko'tarib komillik saodati birla boqiylik javohirotidan bahramand bo'lmoq ilinjida vujud qamog'idan ozodlik istar. Ojiz vujudning karomati shundadirki, ul ikki buyuk olamni birlashtirish va uning aniq manzili, saodat sarhadiga kuzatgan holda, qabrga xotirjam qaytmoq qobiliyatiga egadir. Ikki olam, bul birinchisi foniyya bog'liq tafakkur olami bo'lsa, ikkinchisi boqiy olamga ulanuvchi kangul olamidir. Ikki olam agarkim, oradagi nafs devorlari mashaqqat qurollari bilan yakson qilinmas ekan, alar tutashmasdir va murod hosil bo'lmagay. Tafakkur foniyni ko'rar, kangul baqoni. Insonlar angladimki, aql bilan cheklanibdilar. Tafakkur va kangul chegaralarini nafsning qudratli dushmanlari mustahkam qo'riqlamoqdaki, ojiz bandalar bunday temir istehkomni o'z riyozatlari bilan buzib o'tmoqqa o'zlarida kuch topolmadilar. Tafakkur zindonband, kangul foniyya asirdir.

Bu asirlikdan ozodlik istar tafakkur va kangulni qutqarmoq ilinji aql va iymon chekiga tushgay. Aql qo'shinini tafakkurga iymon lashkarlarini kangulga tashlamoq lozimki, toki ikki olam oraziga parda tortib turgan nafs dushmanlarini yakson qilsinlar... Iymon lashkarlari kangul eshigi oldidagi manmanlikni engsalar, aqlning chaqqon qo'shinlari tafakkurning asr etgan manqurtlik yovlariga zarba beradilar. Kangulda adolat qilichlari jaholat qalqonlarini parchalab haqiqat eshiklaridan kirsinlar. Tafakkurda ilm to'lqinlari ilmsizlik kulbalarini o'z domiga tortib ketsin. Kangulda ilohiy ma'budalar foniyylik istagan foniyy martabalarni bekor qilsinlar...

Ikki olam ikki xilqat. Insonkim avval birinchi holatda tafakkur olamining kichik ong qo'rg'onida odamiyiligini angladi. Va bu qo'rg'on saroyini aql kuchlari bilan qayta qurib uni tafakkur saroyiga aylantirgancha tashqi orazini ilm javohirlari bilan bezadi. Va tafakkur angladikim, saodat topmoq istagi ilm ummonlarida jo'sh urmoqda va ikkinchi olam kangul olamidagi ishq tojini boshiga qo'ndirsagina chinakam haqiqatga erishar.

Bir vujudagi ikki olam... Va lek avom aql bilan cheklandilar va bul ikki olam sukut saltanatida pinhona, nafs bo'roni ostida mavhumlik saltanatiga cho'kib ketmoqda.

Avom xalqda manqurtlik nafasi nima bilan ifodalanadi? Manqurtlikni engish uchun, tafakkurni uyg'otish va kangul buloqlarini ochish uchun nima kerak edi? Manqurtlik nimaga olib keldi va qay manzilga boshlamoqda? Manqurtlikning sababi xalq ichidan donishmandlikning yo'qolishidir... Xalqni vatanparvarlik va haqparvarlikka undovchi donishmandlar qaerda qoldi? Agar ularkim mavjud bo'lsalar xalqning manqurtligiga sababchidirlar. Yoyinki, donishmandlarimiz qo'rqqoqlik vajidan tayoqlarini elkalariga tashlab xalqni avomlik girdobiga tashlab vatandan chiqib ketdilar? Donishmandlik xalq birla birga bo'lib ularga ma'rifat ulashish bilan o'lchanmasmi? Donishmandlik kurashlarda toblanur... Xalq birla yonma - yon turmagan donishmand donishmand emasdir. Agar donishmandlar xalq orasida bo'lsalar ularning nafasidagi hikmatni ko'rmaganimiz va eshitmaganimiz bizni manqurtlik girdobiga yanayam chuqurroq cho'ktirmoqda. Xalqning tafakkur bulog'iga ilm suvlarini quymoq donishmandlar kasbi emasmi? Donishmandlar kurashmasinlar so'zlarini aytsinlar... Bizning anglashimizcha donishmandlar yo xalqni ichiga kirib xalq bo'lib ketdilar va yoki kuchli donishmandliklaridan xalqni nazarga ilmayptilar. Ularning omi xalqqa ilm berolmaganliklari xalqni manqurtlikka olib keldiki, bu holatni ularning qo'rqqoqlik kasb qilib, haqiqatdan yiroq ketganliklari bilan baholash mumkindir. Biz o'tmish donishmandlarimizni maqtash va maqtanishga e'tiborni ko'proq berayapmiz... Lekin ularning ta'limotlarini amaliyotimizda qo'llay olayapmizmi? Yoki ko'z bo'yamachilikni donishmandlar kasbiga aylantirayapmizmi? Chiroyli parda derazaga juda yarashgani bilan doimiy yopiq tursa xonadagi anjomlar mog'or bosadi. Donishmandlar parda ortida qolib ketmasligi kerak. Ular xuddi har tongda quyosh sharqdan o'z orazini ko'rsatib, jahonga nur sochgani kabi xalq oldida yuzlarida balqib turgan donishmandlik nuri, hikmatlari sururi va xalqparvarlik g'ururi bilan namoyon bo'lsalar, ko'ngillarga ma'rifat nuri yog'iladi.

Donishmand zinhor o'zi uchun yashamagay . Donishmand bu xalqdir, vatandir. Iloh ilmi va donishmandlik javohiri har kimga ham berilmagay... Donishmandlik ko'tarilgan yurtda odamlar nafsga berilgaylar. Omma orasidan mehr - oqibat ko'tarilgay. Saxovat yo'qolgay, saxiylik so'ngay. Adolat ketib jaholat urug'i sochilgay. Donishmandning donishmandligi uning tayog'ida emas mayog'idadir. Ilm manzillarini aniq va tiniq ko'rsatuvchi mayoq xalqni saodatga boshlab ommani ma'rifatga undasagina uning donishmandligi namoyon bo'lgay. Donishmandi bo'lmagan xalq avomlik girdobidadir... Tarix donishmandlarining ilmiy - merosiy hikmatlaridan vujudan zohir donishmandlarning ilmiy quvvati xalq ongiga tezroq kirib borgay... Va xalq bilan yuzma - yuz bo'lgan holda hikmat so'zlamoqning ma'rifati ham kuchliroqdir...

Ming afsuski, xalq orasida hayot tarzi faqat iqtisod bilan bog'lanib donishmandlikdan chekinish ro'y berdi. Shu ma'noda anglamoq lozimki, boylik omonatdir va lekin donishmandlikni hech qanday qurol bilan engib bo'lmagay.

Ikki olamni bir vujudda barpo qilib saodat saroyida o'zlikni namoyon qilmoq baxti har biringizga nasib etsin.

Donishmandlikni seving va uning so'nmas nurlari har biringizning qalbingizni yoritgay, inshoolloh...

www.nursafardiyya-sufism.uz